

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QO‘QON DAVLAT UNEVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D. Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

MAQOM YAKKA XONANDALIGI

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	210 000 – San’at
Ta’lim yo‘nalishi:	60211400 - Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)

Qo‘qon – 2025

Fan/modul kodi MYX1820		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1,2,3,4,5,6,7,8	ECTS-Kreditlar 20	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars Soatlari 2,2,2,2,2,2,2,2	
1.	Fanning nomi		Yakka mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Maqom yakka xonandaligi		240	360	600
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan asosiy maqsad – talaba yakkaxon ijrochilik, ansambl ijrochiligi, shuningdek O'zbek musiqa merosi va Sharq musiqasi haqida tasavvurlarga ega bo'lish, xonandalik mahoratini takomillashtirish, sahnada ijro etish, yuksak ijrochilikka oid texnika san'atini mukammal o'zlashtirish ko'nikmasini hosil qilishi. Maqom yakka xonandaligi fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talaba iqtidorini rivojlantirishga imkon darajasida harakat qilishi, uning o'ziga xos jihatlarini to'la namoyon etishi, milliy xonandalikka oid barcha manbalardan foydalangan holda xonandaga saboq berish hamda turfa xil mahalliy ijrochilik uslublarini qo'llay bilish kabi bilim va ko'nikmalarini namoyish etishi zarur. Qolaversa, musiqiy madaniyat muassasalarida, musiqa sohasidagi boshlang'ich, o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarida, teatr va studiyalar, turli ijodiy jamoalarda ishlash ko'nikmalarini olishlari lozim.				
	Ushbu modul milliy va jamoaviy o'ziga xoslik, millatchilik, davlat shakllanishi, siyosiy va ijtimoiy mafkura muammolari atrofidagi madaniy va siyosiy muloqotning bir qismi sifatida ushbu muammolar ayniqsa keng tarqalgan davrda musiqiy ifodalar va musiqiy amaliyotlarni o'rganishga qaratilgan. U milliy qurilish va madaniy millatchilik atrofidagi asosiy tushunchalar va g'oyalarni tanishtiradi va o'rganadi, shuningdek, madaniy so'zlar, siyosiy kuchlar va jamoaviy mafkuralar o'rtasidagi bog'liqlik va o'zaro ta'sirlarni tahlil qiladi va tushunishni o'rganadi, shuningdek, musiqiy ifoda va amaliyotlarni madaniy matnlar sifatida muhokama qilish ko'nikmalarini joriy qiladi. Vaqt davri asosan "uzoq" o'n to'qqizinchi asrni qamrab oladi va misollar Skandinaviya, Germaniya, Avstriya, Italiya, Chexiya, Rossiya, Frantsiya va Buyuk Britaniya va boshqalardan olinadi. Seminarlar quyidagi mavzularni qamrab olishi mumkin: Rejim va opera, Qo'shiq aytish jamiyati, Musiqa va til, Kanonizatsiya, Musiqa, landshaftlar va vatanlar, Siyosiy musiqa, Milliy bastakor, Urush, xotira va zamonaviylik.				

Talabalar Maqom xonandalik tarixi bilan bog'liq barcha jihatlar, maqom san'atining ma'lum janrlariga xos iboralari, O'zbek xalqining boy musiqa meroslarini milliy an'analarida mavjud tushunchalari, Farg'ona Toshkent maqomlari, Buxoro shahsmaqomi, Xorazm maqomlari, yo'llarini bir-biriga ta'siri va alohida xususiyat kasb etuvchi jihatlarini o'zlashtirish an'anaviylik va zamonaviylik ta'lim jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

II. Asosiy amaliy qism (amaliy mashg'ulotlar)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Modul. (1- semestr) Ijro dasturini o'zlashtirishning uzviyligi

1-mavzu. Talabalarining xonandalik bo'yicha ko'nikmalarini tekshirish.

Ijro dasturlari bilan tanishish va tanlash.

Semestr uchun belgilangan ijro dasturi bilan tanishtiriladi. Talabaning ovoz imkoniyatidan kelib chiqqan holda unga mos bo'lgan xalq, bastakor va turkum asarlar tanlanadi.

2-mavzu. Farg'ona-Toshkent mahalliy uslubiga xos xalq asarlardan namunalar o'rganish.

1-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan murakkabligi o'rtacha bo'lgan Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarida yaratilgan asarlardan o'rgatiladi.

3-mavzu. Farg'ona-Toshkent mahalliy uslubida ijod etgan Bastakorlar ijodiyoti asarlaridan namunalar o'rganish.

1-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan bastakorlar tomonidan bastalangan ijodiy asarlardan namunalar o'rganadi. Bu talabalarining badiiy-musiqiy didini shakllanishiga yordam beradi.

4-mavzu. Farg'ona-Toshkent maqomlarining turkum asarlardan o'rganish.

Bunda 1-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan turkum asarlardan semestr uchun tanlab olinadi. O'rganish jarayonida amaliy mashg'ulotlarga mos ravishda izohda ko'rsatilgan badiiy va uslubiy ko'rsatmalardan foydalangan holda o'rgatiladi.

(Tanlangan turkum asarlar to'liqligicha o'zlashtiriladi.)

5-mavzu. O'rganilgan asarlarni sahnada ijro etishga tayyorlash.

Semestr davomida o'rganilgan asarlarni oraliq va yakuniy nazoratlarda, turli konsert dasturlari shuningdek, teleradio kanallari orqali ijro etishda talabalarining sahna madaniyati hamda mahorati shakllantiriladi. Xonanda talaba o'rgangan asarini tinglovchiga yuqori badiiy talqin etish ko'nikmasiga ega bo'lishi talab etiladi.

2-Modul. (2- semestr) Ijro dasturini o'zlashtirishning uzviyligi
1-mavzu. Talabalarining xonandalik bo'yicha ko'nikmalarini tekshirish.
Ijro dasturlari bilan tanishish va tanlash.

Semestr uchun belgilangan ijro dasturi bilan tanishtiriladi. Talabaning ovoz imkoniyatidan kelib chiqqan holda unga mos bo'lgan xalq, bastakor va turkum asarlar tanlanadi.

2-mavzu. Farg'ona-Toshkent mahalliy uslubiga xos xalq asarlardan namunalar o'rganish.

1-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan murakkab shakldagi Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarida yaratilgan asarlardan o'rgatiladi.

3-mavzu. Farg'ona-Toshkent mahalliy uslubida ijod etgan Bastakorlar ijodiyoti asarlaridan namunalar o'rganish.

1-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan bastakorlar tomonidan bastalangan ijodiy asarlardan namunalar o'rganadi. Bu talabalarining badiiy-musiqiy didini shakllanishiga yordam beradi.

4-mavzu. Farg'ona-Toshkent maqomlarining turkum asarlardan o'rganish.

Bunda 1-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan turkum asarlardan semestr uchun tanlab olinadi. O'rganish jarayonida amaliy mashg'ulotlarga mos ravishda izohda ko'rsatilgan badiiy va uslubiy ko'rsatmalardan foydalangan holda o'rgatiladi.
(Tanlangan turkum asarlar to'liqligicha o'zlashtiriladi.)

5-mavzu. O'rganilgan asarlarni sahnada ijro etishga tayyorlash.

Semestr davomida o'rganilgan asarlarni oraliq va yakuniy nazoratlarda, turli konsert dasturlari shuningdek, teleradio kanallari orqali ijro etishda talabalarining sahna madaniyati hamda mahorati shakllantiriladi. Xonanda talaba o'rgangan asarini tinglovchiga yuqori badiiy talqin etish ko'nikmasiga ega bo'lishi talab etiladi.

3-Modul. (3-semestr) Yakka ijrochilik ko'nikmalari ustida ishlash
1-mavzu Ijro dasturlari bilan tanishish va tanlash.

Semestr uchun belgilangan ijro dasturi bilan tanishtiriladi. Talabaning ovoz imkoniyatidan kelib chiqqan holda unga mos bo'lgan xalq, bastakor va turkum asarlar tanlanadi.

2-mavzu. Buxoro, Samarqand vohasiga mansub xalq asarlaridan o'rganish.

2-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan murakkablik darajasi o'rtacha bo'lgan xalq ashulalari hamda Shashmaqom Nasr bo'limi ikkinchi guruh sho'basi tarkibiga kiruvchi Qashqarcha, Soqinoma va Ufarlardan birini o'rgatiladi.

3-mavzu. Buxoro, Samarqand vohasiga mansub Bastakorlar ijodiga mansub namunalar o'rganish.

2-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan bastakorlar tomonidan bastalangan ijodiy asarlaridan namunalar o'rganiladi. Bu talabalarining badiiy-musiqiy didini shakllanishiga yordam beradi.

4-mavzu. Buxoro Shashmaqomining Nasr bo'limi birinchi guruh sho'balari tarkibidan turkum asarlar o'rganish.

Bunda 2-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan asarlardan semestr uchun tanlab olinadi. O'rganish jarayonida amaliy mashg'ulotlarga mos ravishda izohda ko'rsatilgan badiiy va uslubiy ko'rsatmalardan foydalangan holda o'rgatiladi.

(Tanlangan turkum asarlar to'liqligicha o'zlashtiriladi.)

5-mavzu. O'rganilgan asarlarni sahnada ijro etishga tayyorlash.

Semestr davomida o'rganilgan asarlarni oraliq va yakuniy nazoratlarda, turli konsert dasturlari shuningdek, teleradio kanallari orqali ijro etishda talabalarning sahna madaniyati hamda mahorati shakllantiriladi. Xonanda talaba o'rgangan asarini tinglovchiga yuqori badiiy talqin etish ko'nikmasiga ega bo'lishi talab etiladi.

4-Modul. (4- semestr) Yakka ijrochilik ko'nikmalari ustida ishlash

1-mavzu Ijro dasturlari bilan tanishish va tanlash.

Semestr uchun belgilangan ijro dasturi bilan tanishtiriladi. Talabaning ovoz imkoniyatidan kelib chiqqan holda unga mos bo'lgan Buxoro va Samarqand vohasiga xos xalq, bastakor va turkum asarlar tanlanadi.

2-mavzu. Buxoro, Samarqand vohasiga mansub xalq asarlaridan o'rganish.

2-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan murakkablik darajasi o'rtacha bo'lgan xalq ashulalari hamda Shashmaqom Nasr bo'limi ikkinchi guruh sho'basi tarkibiga kiruvchi Qashqarcha, Soqinoma va Ufarlardan birini o'rgatiladi.

3-mavzu. Buxoro, Samarqand vohasiga mansub Bastakorlar ijodiga mansub namunalar o'rganish.

2-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan bastakorlar tomonidan bastalangan ijodiy asarlaridan namunalar o'rganiladi. Bu talabalarning badiiy-musiqiy didini shakllanishiga yordam beradi.

4-mavzu. Buxoro Shashmaqomining Nasr bo'limi ikkinchi guruh sho'balari tarkibidan turkum asarlar o'rganish.

Bunda 2-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan asarlardan semestr uchun tanlab olinadi. O'rganish jarayonida amaliy mashg'ulotlarga mos ravishda izohda ko'rsatilgan badiiy va uslubiy ko'rsatmalardan foydalangan holda o'rgatiladi.

(Tanlangan turkum asarlar to'liqligicha o'zlashtiriladi.)

5-mavzu. O'rganilgan asarlarni sahnada ijro etishga tayyorlash.

Semestr davomida o'rganilgan asarlarni oraliq va yakuniy nazoratlarda, turli konsert dasturlari shuningdek, teleradio kanallari orqali ijro etishda talabalarning sahna madaniyati hamda mahorati shakllantiriladi. Xonanda talaba o'rgangan asarini tinglovchiga yuqori badiiy talqin etish ko'nikmasiga ega bo'lishi talab

etiladi.

5-Modul. (5- semestr) Musiqiy asarlarning badiiy talqini.

1- Ijro dasturlari bilan tanishish va tanlash.

Semestr uchun belgilangan ijro dasturi bilan tanishtiriladi. Talabaning ovoz imkoniyatinidan kelib chiqqan holda unga mos bo'lgan xalq, bastakor va turkum asarlardan tanlanadi.

2-mavzu. Xorazm mahalliy uslibiga xos xalq asarlaridan namunalar o'rganish.

3-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan murakkab bo'lgan Xorazm xalq ashulalaridan o'rgatiladi.

3-mavzu. Xorazm mahalliy uslibiga xos, bastakorlar ijod etgan asarlaridan namunalar o'rganish.

3-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan Xorazm xududiga oid bastakorlar tomonidan yaratilgan asarlardan namunalar o'rganiladi.

4-mavzu. Xorazm maqomlaridan turkum asarlardan o'rganish.

Bunda 3-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan Xorazm maqomlariga mansub turkum asarlardan birini semestr uchun tanlab olinadi. O'rganish jarayonida amaliy mashg'ulotlarga mos ravishda izohda ko'rsatilgan badiiy va uslubiy ko'rsatmalardan foydalangan holda o'rgatiladi.

(Tanlangan turkum asarlar to'liqligicha o'zlashtiriladi.)

5-mavzu.O'rganilgan asarlarni sahnada ijro etishga tayyorlash.

Semestr davomida o'rganilgan asarlarni oraliq va yakuniy nazoratlarda, turli konsert dasturlari shuningdek, teleradio kanallari orqali ijro etishda talabalarning sahna madaniyati hamda mahorati shakllantiriladi. Xonanda talaba o'rgangan asarini tinglovchiga yuqori badiiy talqin etish ko'nikmasiga ega bo'lishi talab etiladi.

6-Modul. (6- semestr) Musiqiy asarlarning badiiy talqini.

1-mavzu.Ijro dasturlari bilan tanishish va tanlash.

Semestr uchun belgilangan ijro dasturi bilan tanishtiriladi. Talabaning ovoz imkoniyatinidan kelib chiqqan holda unga mos bo'lgan xalq, bastakor va turkum asarlardan tanlanadi.

2-mavzu. Xorazm mahalliy uslibiga xos xalq asarlaridan namunalar o'rganish.

3-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan murakkab bo'lgan Xorazm xalq ashulalaridan o'rgatiladi.

3-mavzu. Xorazm mahalliy uslibiga xos, bastakorlar ijod etgan asarlaridan namunalar o'rganish.

3-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan Xorazm xududiga oid bastakorlar tomonidan yaratilgan asarlardan namunalar o'rganiladi.

4-mavzu. Xorazm maqomlaridan turkum asarlardan o'rganish.

Bunda 3-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan Xorazm maqomlariga mansub turkum asarlardan birini semestr uchun tanlab olinadi. O'rganish jarayonida amaliy mashg'ulotlarga mos ravishda izohda ko'rsatilgan badiiy va uslubiy ko'rsatmalardan foydalangan holda o'rgatiladi.

(Tanlangan turkum asarlar to'liqligicha o'zlashtiriladi.)

5-mavzu. O'rganilgan asarlarni sahnada ijro etishga tayyorlash.

Semestr davomida o'rganilgan asarlarni oraliq va yakuniy nazoratlarda, turli konsert dasturlari shuningdek, teleradio kanallari orqali ijro etishda talabalarining sahna madaniyati hamda mahorati shakllantiriladi. Xonanda talaba o'rgangan asarini tinglovchiga yuqori badiiy talqin etish ko'nikmasiga ega bo'lishi talab etiladi.

7-Modul. (7-semestr) Sahnada ijro etish ko'nikmalarini mukammallashtirish.

1-mavzu. Ijro dasturlari bilan tanishish va tanlash.

Bunda talabalarining ovoz imkoniyatlari tekshiriladi. Semestr uchun belgilangan ijro dasturi bilan tanishtiriladi hamda asarlar tanlab olinadi.

2-mavzu. Katta ashulalardan namunalar o'rganish.

4-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan Farg'ona-Toshkent ijrochilik uslubiga mansub katta ashulalaridan namunalar o'rganiladi.

3-mavzu. Xorazm suvoralaridan namunalar o'rganish.

4-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan Xorazm maqomlaridaga oid asarlardan bir yoki xalq suvoralaridan biri savti suvorasi bilan birga o'rganiladi.

4-mavzu. Buxoro Shashmaqomining Nasr bo'limi birinchi yoki ikkinchi guruh sho'balari tarkibidagi murakkab turkum asarlardan o'rganish.

Bunda 4-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan asarlardan semestr uchun tanlab olinadi. O'rganish jarayonida amaliy mashg'ulotlarga mos ravishda izohda ko'rsatilgan badiiy va uslubiy ko'rsatmalardan foydalangan holda o'rgatiladi.

(Tanlangan turkum asarlar to'liqligicha o'zlashtiriladi.)

5-mavzu. O'rganilgan asarlarni sahnada ijro etishga tayyorlash.

Semestr davomida o'rganilgan asarlarni oraliq va yakuniy nazoratlarda, turli konsert dasturlari shuningdek, teleradio kanallari orqali ijro etishda talabalarining sahna madaniyati hamda mahorati shakllantiriladi.

8-Modul. (8-semestr) Sahnada ijro etish ko'nikmalarini mukammallashtirish.

1-mavzu. Ijro dasturlari bilan tanishish va tanlash.

Bunda talabalarining ovoz imkoniyatlari tekshiriladi. Semestr uchun belgilangan ijro dasturi bilan tanishtiriladi hamda asarlar tanlab olinadi.

2-mavzu. Katta ashulalardan namunalar o'rganish.

4-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan Farg‘ona-Toshkent ijrochilik uslubiga mansub katta ashulalaridan namunalar o‘rganiladi.

3-mavzu. Xorazm suvoralaridan namunalar o‘rganish.

4-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan Xorazm maqomlaridaga oid asarlardan bir yoki xalq suvoralaridan biri savti suvorasi bilan birga o‘rganiladi.

4-mavzu. Buxoro Shashmaqomning Nasr bo‘limi birinchi yoki ikkinchi guruh sho‘balari tarkibidagi murakkab turkum asarlardan o‘rganish.

Bunda 4-kurs talabalari uchun ilovada keltirilgan asarlardan semestr uchun tanlab olinadi. O‘rganish jarayonida amaliy mashg‘ulotlarga mos ravishda izohda ko‘rsatilgan badiiy va uslubiy ko‘rsatmalardan foydalangan holda o‘rgatiladi.

(Tanlangan turkum asarlar to‘liqligicha o‘zlashtiriladi.)

5-mavzu. O‘rganilgan asarlarni sahnada ijro etishga tayyorlash.

Semestr davomida o‘rganilgan asarlarni oraliq va yakuniy nazoratlarda, turli konsert dasturlari shuningdek, teleradio kanallari orqali ijro etishda talabalarning sahna madaniyati hamda mahorati shakllantiriladi.

(7-8 semestr davomida o‘zlashtirgan asarlar davlat imtihonida ijro etilishiga taysiya etiladi)

Izoh: **Ijro dasturida belgilangan asarlarni o‘rganish jarayonida amaliy mashg‘ulotlarga mos ravishda quyidagi badiiy va uslubiy ko‘rsatmalardan foydalanish tavsiya etiladi: Notalarni varaqdan ravon o‘qish. Nota matnini aniq, tekis, savodli va erkin ijro etish. Ijro ko‘nikmalarini takomillashtirish. Kuylash san’ati. Ovoz turlari. Ijro uslublari. Texnik mashqlar. Artikulyatsiya. Kuylash imkoniyatlarini va ovoz ko‘lamini kengaytirish. Milliy mumtoz musiqa namunalarini ijro etish uslublari. Musiqiy bezaklar. Ijro shtrixlari. Vokal ijrochiligining o‘ziga xosliklari. Milliy mumtoz asarlar tahlili. Musiqiy shakl. Musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro etishda barcha ijro usullaridan foydalanish. Talabani mustaqil ravishda mashg‘ulot olib borish ko‘nikmalariga yo‘naltirish. Asarlarni mohirona ijro etish ustida ishlash. Kontsert ijrochilik mahoratini shakllantirish. Davlat attestatsiyasiga tayyorgarlik ko‘rish.*

****Talabaning iqtidori va ijro imkoniyatidan kelib chiqqan holda o‘rganiladigan asarlarning murakkablik darajasi chegaralanmaydi.*

****O‘tkaziladigan nazorat turlari bo‘yicha: Oraliq nazoratda xalq va bastakorlik asarlar ijro etiladi. Yakuniy nazoratda faqat turkum asarlar ijro etiladi.*

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

	1. Dasturda keltirilgan Buxoro shashmaqomning nasr bo‘limi, Farg‘ona Toshkent maqom yo‘llari, Xorazm maqomlaridan namunalar xalq va bastakorlar ijodiga mansub asarlar g‘azallarini tahlil qilish. 2. Talabaning ovoz imkoniyatidan kelib chiqqan holda asar tanlash. 3. Ijro dasturidagi asarni daromad, miyonhad, dunasra, avj, namudlar va furavord qismlarini ijro etishni o‘rganish. 4. Turkum asarning tarkibiy qisimlarini o‘rganish. 5. Xalq ashulalaridan birini talabaning ovoz imkoniyatidan kelib chiqqan holda o‘rganish. 6. Bastakorlik asarlaridan birini talabaning ovoz imkoniyatidan kelib chiqqan holda o‘rganish. 7. Ijroni mukammallashtirish (artikulyatsiyani rivojlantirish, Maqomlarni tinglash va qulay o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish). 8. Asarlarni sahnada ijro etishga tayyorlash. IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar <i>Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:</i> 1. Maqom ijrochiligi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish. 2. Ijro ko‘nikmalarini o‘zlashtirish va shakllantirish. 3. Ijrochilik mahoratini rivojlantirish. 4. Musiqiy asarlarni sof ijro usullari ustida ishlash. 5. Badiiy asarlarni mustaqil ravishda tahlil qilib o‘rganish. 6. Notadan ravon o‘qish malakasi ustida ishlash. 7. Ijrochilik ko‘nikmalarini mukammallashtirish. 8. Sahnaviy chiqish va maxsus kontsert ko‘nikmalarini rivojlantirish.
3.	V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: – professional kontsert ijrochilari; – ansambl artistlari va ularing sahnadagi chiqishlari; – kontsert-ijrochilik ko‘nikmalari; – musiqaning shakl tahlilini ochib beruvchi nazariy asoslar haqida

	<i>tasavvurga ega bo'lishi;</i> – ijro repertuariga kiritilgan asarlarni o'zlashtirishni; – notadan o'qish texnikasi ko'nikmalarini rivojlantirishni; – turli xil janrdagi asarlari ijrochilik tahlilini; – maqom asarlari, xalq kuy va qo'shiqlari, bastakorlar ijodiyoti, sharq musiqasi namunalaridan katta va kichik shakldagi, xilma-xil janrdagi musiqiy asarlari yuqori darajada mohirona ijro etishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi;</i> – mutaxassislik bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash; – ijrochilik mahoratini takomillashtirish; – sahnada ijro etish;
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: – audio va video yozuvlardan foydalanish; – treninglar; – nota o'qish mahorati; – bilaman, bilishni xoxlayman, bilib oldim metodi; – texnik mashqlar ustida ishlash; – Ven diagrammasi metodi; – individual ijro yo'llari;mantiqiy fikrlash;
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy, amaliy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha dasturni ijro etib ko'rsatish.
6.	Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari Asosiy adabiyotlar 1. E.Ro'zimatov. "Maqom yakka xonandalik". O'quv-qo'llanma. T., 2021y. 2. M.Xudoynazarov "An'anaviy xonandalik"(Chorgoh turkumi). O'quv-qo'llanma. T., 2018y. 3. M.Yo'lchiyeva. "An'anaviy yakka xonandalik". Toshket-2018y. 4. K.Bo'riyeva. "Ayol ovozlari uchun qo'llanma". Toshket-2008y. 5. N.Pirmatova. "Zebo pari". Toshkent-2022y 6. M.Ermatov. "An'anaviy xonandalik". Toshket-2009y. 7. Y.Yu.Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi I, II, III, IV, V tomlar. T., 1959y. 8. Yu.Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi I, II, III, IV, V tomlar. T., 1959y. 9. Mamadaliev F.Milliy musiqa ijrochiligi masalalari.–T., 2001. 10.U. Rasulov "An'anaviy xonandalik o'qitish metodikasi".Toshket-2006y 11.K. Bo'riyeva. "An'anaviy xonandalik" Toshkent 2025y. 12.A. Jalilov. "Maqom yakka xonandaligi" Toshkent 2025y.

	13.M. Karimova “Shashmaqom talqin qoidalari” Darslik Toshkent 2025y. 14.M. Karimova “Maqom yakka xonandaligi” Darslik 1-kurs T-2025y Qo‘shimcha adabiyotlar 1. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 4-tom. T, 2020 2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T, 2022 3. Rajabiy Yu. Musiqa merosimizga bir nazar. – T., 1978 4. Rajabov I. Maqomlar. – T., 2004 5. Matyakubov O. Maqomot. – T.: “Kamalak”. 2004 6. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – T.: “O‘zadabiynashr”. 1963 7. Крунтяева Т.С, Молокова Н.В. «Словарь иностранных музыкальных терминов» Л. «Музыка». 1997. 8. S.Begmatov “Berta Davidva” o‘quv qo‘llanma Toshkent 2022 9. M.Ulasheva “Komila Aminova” monografiya Toshkent 2024 10. M.Ulasheva “Munajat Yo‘lchiyeva” monografiya Toshkent 2024 11. B.Do‘smurodov “Yakka qo‘shiqchilik” Orifxon Hotamov ijro yo‘llari Toshkent 2013 12. R.Yunusov “Fattohxon hofiz” Toshkent 2022 13. S.Mannopov, N.Soliyev “Jo‘raxon Sultonov” Toshkent 2019 14. Fitrat A. O‘zbek klassikmusiqasi vauning tarixi T.; 1993 y. Axborot manbalari: 15. http://turkoloev.tk/librarv/354 16. http://www.cultinfo.ru 17. http://mvtashkent.uz/2014/10/17/istoriva-uzbekskoi-muzvki/ 18. http://dic.academic.ru/dic.nsf/encmusic/7749/Uzbekskava 19. http://edu.e-history.kz/ru/publications/view/121 20. http://www.12news.uz/uz/news/2013/08/shara-xalalari-musiaasi/ 21. http://ru.wikipedia.org/wiki/Nisa 22. http://www.tourstoturkmenistan.com/ru/musicalinstruments/turkmenskava-natsionalnava-muzvka.html 23. http://ru.wikipedia.org/wiki/Uvsurskiemukamq 24. http://www.advantour.com/rus/tajikistan/culture.html https://www.ucl.ac.uk/module-catalogue/modules/music-nations-society-ELCS0006
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas’ullar: A.Talaboyev – Qo‘qon davlat universiteti Xalq ijodiyoti kafedrası dotsenti D.Toshmatov - Qo‘qon davlat universiteti Xalq ijodiyoti kafedrası dotsenti

9.	Taqrizchilar: K.Bo‘riyeva – Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutining “Maqom xonandaligi” kafedrasi professor v.b, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist. S.Topildiyev - Qo‘qon davlat universiteti Xalq ijodiyoti kafedrasi mudiri dotsent
----	--